

**MEROS SHARTNOMASINI FUQAROLIK-HUQUQIY TARTIBGA
SOLISH: HUQUQIY MOHIYAT, MUAMMOLAR VA
TAKOMILLASHTIRISH YO'LLARI**

Abdiyeva Shaxrizoda Amirqul qizi
Toshkent davlat yuridik universiteti magistri

Annotatsiya: meros shartnomasi fuqarolik huquqining shartnoma va meros institutlarini birlashtiruvchi muhim mexanizm sifatida mulkiy munosabatlarni tartibga solishda alohida o'rin tutadi. Ushbu maqola O'zbekiston Respublikasi qonunchiligida meros shartnomasining huquqiy tabiatini, qonunchilikdagi o'rnini va amaliy qo'llanilishidagi muammolarni tahlil qiladi. Shuningdek, Germaniya, Shveytsariya va Rossiya kabi mamlakatlarning tajribasi qiyosiy tahlil qilinib, milliy qonunchilikni takomillashtirish bo'yicha takliflar ishlab chiqiladi. Maqola meros shartnomasining huquqiy belgilari, tuzish tartibi, amaliy ahamiyati va nizolarni hal qilish usullariga alohida e'tibor qaratadi.

Kalit so'zlar: meros shartnomasi, fuqarolik huquqi, vasiyatnoma, meros huquqi, notarial tasdiqlash, qonunchilikni takomillashtirish.

**НАСЛЕДСТВЕННЫЙ ДОГОВОР В ГРАЖДАНСКО-
ПРАВОВОМ РЕГУЛИРОВАНИИ: ПРАВОВАЯ СУЩНОСТЬ,
ПРОБЛЕМЫ И ПУТИ СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ**

Абдиева Шахризода Амиркул кизи
Магистр Ташкентского государственного юридического университета

Аннотация: наследственный договор, как важный механизм, объединяющий договорные и наследственные институты гражданского права, занимает особое место в регулировании имущественных отношений. В данной статье анализируется правовая природа наследственного договора в законодательстве Республики Узбекистан, его место в законодательстве и проблемы в его практическом применении. Также в сравнительном анализе анализируется опыт таких стран, как Германия, Швейцария и Россия, и

SJIF: 5.051

разрабатываются предложения по совершенствованию национального законодательства. В статье особое внимание уделено правовым особенностям наследственного договора, порядку его заключения, практическому значению и способам разрешения споров.

Ключевые слова: наследственный договор, гражданское право, завещание, наследственное право, нотариальное удостоверение, совершенствование законодательства.

**INHERITANCE AGREEMENT INTO CIVIL-LEGAL
REGULATION: LEGAL ESSENCE, PROBLEMS AND WAYS OF
IMPROVEMENT**

Abdiyeva Shakhrizoda Amirkul qizi
Master of Tashkent State University of Law

Abstract: *the inheritance agreement, as an important mechanism combining the contractual and inheritance institutions of civil law, occupies a special place in the regulation of property relations. This article analyzes the legal nature of the inheritance agreement in the legislation of the Republic of Uzbekistan, its place in the legislation and problems in its practical application. Also, the experience of countries such as Germany, Switzerland and Russia is analyzed comparatively and proposals are developed to improve national legislation. The article pays special attention to the legal features of the inheritance agreement, the procedure for its conclusion, practical significance and methods of resolving disputes.*

Keywords: *inheritance agreement, civil law, will, inheritance law, notarial certification, improvement of legislation.*

Kirish

Meros shartnomasi fuqarolik huquqida mulkiy munosabatlarni tartibga solishning muhim vositasi sifatida mulk egalariga o'z mol-mulkining kelajakdagi taqdirini aniq belgilash imkonini beradi. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 41-moddasi mulk huquqini, shu jumladan, meros huquqini kafolatlaydi, bu esa iqtisodiy erkinlik va xususiy mulkni rivojlantirish uchun muhim asosdir. Biroq, O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksida meros shartnomasi alohida institut sifatida tartibga solinmagan, bu esa amaliyotda muayyan muammolarni keltirib chiqaradi. Ushbu maqola meros shartnomasining huquqiy mohiyatini tahlil qilish, qonunchilikdagi bo'shliqlarni aniqlash va xorijiy tajribaga asoslangan takomillashtirish yo'llarini ishlab chiqishni maqsad qiladi.

Meros shartnomasi – meros qoldiruvchi va merosxo'r o'rtasida tuziladigan ikki tomonlama kelishuv bo'lib, unda mulkning meros sifatida o'tkazilishi va merosxo'rning majburiyatlari belgilandi. U vasiyatnomadan farqli o'laroq, tomonlarning o'zaro roziligi va majburiyatlariga asoslanadi. Nemis olimlari, xususan, Rainer Frank ta'kidlaganidek, meros shartnomasi shartnoma huquqi va meros huquqining sintezi sifatida mulkiy munosabatlarni tartibga solishda barqarorlikni ta'minlaydi.¹

Meros shartnomasining ilk belgilari Rim xususiy huquqida ham, vasiyatnomaga binoan va qonun bo'yicha meros qilish tartiblari bilan bir qatorda kuzatilgan. Bu yerda u "ishonchli bitim" (pactum fiduciae) deb nomlangan. Mazkur bitimga muvofiq, oila boshlig'i emancipatsiya qilingan o'g'illarining mulkdagi ulushiga meros huquqi asosida da'vo qilish huquqiga ega bo'lgan, bu esa o'zaro kelishuvga asoslangan. Rimlik yuristlar tomonidan ilk bor meros

¹ Германское гражданское уложение: Вводный закон к Германскому уложению: перевод с немецкого / Науч. Ред. А.Л.Маяковский и др. – 2-е издание, доп. Науч. – М.:ВолтерсКлувер, 2006. –с.534.

shartnomasining huquqiy tushunchasi, ya'ni "o'lim holatida mulkni tantanali topshirish to'g'risidagi huquqiy kuchga ega bo'lgan harakat" va ushbu mulkni qabul qiluvchi "tabiiy merosxo'r maqomini olgan shaxs" sifatida umumiy yondashuv shakllantirilgan.² Boshqa nemis olimi L. Graf esa meros shartnomasini quyidagicha ta'riflaydi: "bu ikki yoki undan ortiq shaxs tomonidan tuziladigan o'lim holatiga oid tasarruf bo'lib, unga ko'ra meros qoldiruvchi shartnomaning boshqa tomonini yoki uchinchi shaxsni o'zining merosxo'ri sifatida tayinlaydi."³ O'zbekiston qonunchiligida meros shartnomasi alohida institut sifatida aniq tartibga solinmagan bo'lsa-da, u shartnoma huquqining umumiy qoidalari va meros huquqiga oid normalar asosida amalga oshiriladi. Meros shartnomasi — meros qoldiruvchi (mulk egasi) va merosxo'r (kelajakda mulkni oluvchi shaxs) o'rtasida tuziladigan ikki tomonlama kelishuv bo'lib, uning tuzilishi qat'iy huquqiy shartlarga rioya qilinishni talab qiladi. Quyida meros shartnomasini tuzish tartibining bosqichlari batafsil ko'rib chiqiladi: Meros shartnomasini tuzishning birinchi bosqichi sifatida meros qoldiruvchi va merosxo'r o'zaro shartlar bo'yicha kelishib olishi kerak. Bu jarayon tomonlarning ixtiyoriy roziligiga asoslanadi, ya'ni hech qanday majburlash yoki bosim bo'lmasligi lozim. O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 354-moddasida ham shartnoma tuzish erkinligi haqida keltirilgan. Meros shartnomasida meros qoldiruvchi mulkni kimga, qanday shartlar asosida va qaysi hajmda o'tkazishni belgilash huquqiga ega. Merosxo'r ham o'z o'rnida shartnomada ko'rsatilgan majburiyatlarni qabul qilish yoki rad etish huquqiga ega. Kelishuv jarayonida tomonlar mulkning turi (ko'chmas mulk,

²Пучков О.А. Пучков В.О. Наследственный договор как особый институт гражданского права иностранных государств: общая характеристика и проблемы правового режима // Журнал «Правопорядок: история, теория и практика», №3 (10). – 2016. – с. 35

³Graf H.L. Nachlaßrecht. Handbuch der Rechtspraxis. 8 Auflage. München: C.H. Beck'scheVerlagsbuchhandlung, 2010. – p.99.

transport vositasi, qimmatli qogʻozlar va boshqalar), merosxoʻrning majburiyatlari (masalan, moddiy yordam, parvarish) va shartnomaning amal qilish muddati kabi masalalarni muhokama qiladi. Masalan, meros qoldiruvchi oʻz uyini merosxoʻrga oʻtkazishni shart qilib, buning evaziga merosxoʻrdan hayoti davomida oylik xarajatlarni toʻlashni talab qilishi mumkin. Kelishuv ixtiyoriy va qonuniy boʻlishi kerak. Agar shartnoma majburlash yoki aldash yoʻli bilan tuzilsa, u haqiqiy emas deb topilishi mumkin. Meros shartnomasi yozma shaklda tayyorlanishi kerak boʻlib, unda barcha shartlar aniq va ravon koʻrsatiladi. Yozma shakl meros shartnomasining majburiy talabi hisoblanadi. Shartnoma matnida tomonlarning shaxsiy maʼlumotlari, mulkning aniq tavsifi, merosxoʻrning majburiyatlari va shartnomaning amal qilish shartlari kabi muhim jihatlar kiritiladi. Shartnomada noaniqliklar yoki ikki xil talqin qilishga imkon beruvchi iboralar boʻlmasligi kerak, chunki bu kelajakda nizolarga olib kelishi mumkin.

Meros shartnomasining asosiy huquqiy belgilari quyidagilardan iborat:

Ikki tomonlama xususiyat: Shartnoma meros qoldiruvchi va merosxoʻrning ixtiyoriy roziligiga asoslanadi. **Yozma shakl va notarial tasdiqlash:** Shartnoma yozma shaklda tuzilishi va notarius tomonidan tasdiqlanishi shart. **Mulkka asoslanish:** Shartnomaning predmeti meros qoldiruvchining mulki boʻlib, u koʻchmas mulk, transport vositalari, qimmatli qogʻozlar yoki intellektual mulkni oʻz ichiga olishi mumkin. **Oʻzaro majburiyatlar:** Merosxoʻr moddiy yordam, parvarish yoki mulkni saqlash kabi majburiyatlarni oʻz zimmasiga olishi mumkin. **Qonuniy cheklovlar:** Shartnoma majburiy ulush huquqiga ega shaxslarning (voyaga yetmagan farzandlar, mehnatga layoqatsiz qaramogʻidagilar) huquqlarini buzmasligi kerak. Meros shartnomasining vasiyatnomadan farqiga toʻxtaladigan boʻlsak, vasiyatnoma bir tomonlama iroda ifodasi boʻlib, meros qoldiruvchining

xohishiga asoslanadi. Meros shartnomasi esa ikki tomonlama kelishuv bo‘lib, merosxo‘rning roziligi va majburiyatlarini talab qiladi. Bu xususiyat uni yanada barqaror va nizolarni kamaytiruvchi mexanizmga aylantiradi. O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksida meros shartnomasi alohida institut sifatida tartibga solinmagan. Biroq, shartnoma huquqining umumiy normalari va meros huquqiga oid qoidalar ushbu institutni amalda qo‘llash imkonini beradi. Masalan shartnomaning yozma shaklda bo‘lishini, notarial tasdiqlashni majburiy etib belgilash mumkin.

Albatta, meros shartnomasiga umumiy majburiyatlar va shartnomalar to‘g‘risidagi qoidalarni to‘liq qo‘llash maqsadga muvofiq emas. Bizning fikrimizcha, merosxo‘r tomonidan meros shartnomasi bo‘yicha o‘z huquqlarini boshqa shaxsga o‘tkazish imkoniyatiga yo‘l qo‘yib bo‘lmaydi. Avval ta’kidlanganidek, meros shartnomasi – eng avvalo, meros qoldiruvchining o‘z mol-mulkini o‘limidan so‘ng taqsimlash usullaridan biri hisoblanadi. Meros qoldiruvchi biror merosxo‘r bilan meros shartnomasini tuzar ekan, u o‘z mol-mulki qanday tartibda va aynan qaysi merosxo‘rlarga o‘tishi kerakligini belgilab qo‘yadi. Shu bois, meros shartnomasida shaxsiy omilni inobatga olish zarur. O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 1118-moddasida merosxo‘rlar sifatida kimlar hisoblanishi belgilangan bo‘lib, ularga quyidagilar kiradi: meros ochilgan paytda hayot bo‘lgan fuqarolar, shuningdek meros qoldiruvchining hayotlik paytida homila holida bo‘lgan va meros ochilgandan keyin tirik tug‘ilgan bolalar. Ular vasiyat va qonun bo‘yicha merosxo‘r bo‘lishlari mumkin. Shuningdek, meros ochilgan paytda tuzilib bo‘lgan yuridik shaxslar, davlat va fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari ham vasiyat bo‘yicha merosxo‘r bo‘lishlari mumkin.⁴ Meros

⁴ O‘zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi (22.04.2025 й., 03/25/1060/0373-сон).
SJIF: 5.051

shartnomasini tuzuvchi shaxs (meros qoldiruvchi) to'liq muomala layoqatiga ega bo'lishi kerak, ya'ni u o'z harakatlarining oqibatlarini to'liq anglab yetishi lozim. O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 22-moddasida Fuqaroning o'z harakatlari bilan fuqarolik huquqlariga ega bo'lish va ularni amalga oshirish, o'zi uchun fuqarolik burchlarini vujudga keltirish va ularni bajarish layoqati (muomala layoqati) u voyaga yetgach, ya'ni o'n sakkiz yoshga to'lgach to'la hajmda vujudga kelishi belgilangan. Agar shaxs ruhiy kasallik yoki boshqa sabablarga ko'ra muomalaga layoqatsiz deb topilsa, unda ushbu shartnoma haqiqiy emas deb hisoblanadi. Masalan, keksa yoshdagi shaxs meros shartnomasini tuzmoqchi bo'lsa, notarius uning aqliy holatini tekshirib ko'rishi lozim. Agar shaxs biron bir ruhiy kasallikdan aziyat cheksa, shartnoma tuzish rad etilishi mumkin. Muomalaga layoqatsiz shaxs tomonidan tuzilgan shartnoma faqatgina sud tomonidan bekor qilinishi mumkin. Meros shartnomasi mol-mulkning muayyan qismini yoki to'liq merosni o'z ichiga olishi mumkin. Bu ko'chmas mulk (uy, yer), ko'char mulk (avtomobil, qimmatbaho buyumlar), pul mablag'lari, qimmatbaho qog'ozlar yoki boshqa huquqlar (masalan, mualliflik huquqi) bo'lishi mumkin. Bundan tashqari, meros shartnomasida mulk aniq ko'rsatilishi kerak. Meros qoldiruvchi faqat o'ziga tegishli mulkni meros sifatida o'tkazishi mumkin. Boshqa shaxsga tegishli mulk shartnomaga kiritilishi mumkin emas. Meros shartnomasining asosiy xususiyatlariga to'xtaladigan bo'lsak, birinchi xususiyati bu uning shartli xarakterga ega ekanligidir. Meros shartnomasi meros qoldiruvchining o'limi yuz berganda kuchga kiradi. Shartnoma tuzilgan paytda u faqat kelajakdagi huquqiy oqibatlarni belgilaydi, ammo mulk o'tkazilishi meros qoldiruvchining vafotidan keyin amalga oshiriladi. Masalan, shartnomada "meros qoldiruvchi vafot etganda uy merosxo'rga o'tadi" deb ko'rsatilishi mumkin. Bu shartnoma tuzilgan vaqtda

mulk merosxo'rga o'tmaydi, balki faqat o'limdan keyin amalga oshirilishini nazarda tutadi. Shartnoma tuzish shartlaridan kelib chiqadigan bo'lsak, meros shartnomasida quyidagilar ko'rsatilgan bo'lishi kerak:

- Tomonlarning shaxsiy ma'lumotlari (F.I.O., pasport ma'lumotlari).
- Mulkning aniq tavsifi (masalan, ko'chmas mulkning manzili va kadastr raqami).
- Merosxo'ring majburiyatlari (masalan, oylik moddiy yordam).
- Qo'shimcha shartlar (masalan, shartnomaning bekor qilinishi tartibi).

Merosxo'ring moddiy yordam yoki parvarish majburiyatlarini bajarmasligi shartnomaning bekor qilinishi yoki nizolarga olib kelishi mumkin bo'ladi.

Zamonaviy fuqarolik qonunchiligida merosning ikki turi — qonun bo'yicha va vasiyat bo'yicha meros olish nazarda tutilgan. Shuning uchun meros olish tartibini qayta ko'rib chiqish va uchinchi yangi institutni — **meros shartnomasini** joriy etish orqali mavjud normalarni yangilash zarurati mavjud. Bu ayniqsa, doimiy g'amxo'rlikka muhtoj bo'lgan keksa fuqarolarning fuqarolik huquqlarini himoya qilish jihatidan dolzarbdir. Rossiya qonunchiligini oladigan bo'lsak, ularda bir yoki bir nechta merosxo'rlar bilan bir nechta meros shartnomalarini tuzish va ularni bajarish imkoniyati taqiqlanmagan. Biroq bir nechta meros shartnomalarini bajarish bilan bog'liq muammolar yuzaga kelishi mumkin. Masalan, meros qoldiruvchi bir merosxo'r bilan turli mulklarni qamrab olgan bir nechta meros shartnomasini tuzgan deylik. Merosxo'r ushbu shartnomalardan birini tegishli darajada bajargan, boshqasini esa bajarmagan. Qonun mazmunidan kelib chiqqan holda, merosxo'r to'liq bajargan shartnoma asosida ushbu shartnoma predmeti bo'lgan mulkni oladi va notarius meros huquqi

to'g'risida guvohnoma berishi shart bo'ladi. Ammo bajarilmagan ikkinchi meros shartnomasi bo'yicha mulk merosxo'rga o'tmaydi va notarius merosxo'rdan o'z majburiyatlarini bajarishni talab qilishga haqli bo'ladi.

Meros shartnomasi keng qo'llaniladigan davlatlar amaliyotidan oladigan bo'lsak, meros shartnomasida nizolarni muqobil hal qilish usullariga (Alternative Dispute Resolution, ADR) to'xtalsak, bu taraflar o'rtasidagi kelishmovchiliklarni sud jarayonlariga jalb qilmasdan, samarali, iqtisodiy va konfidentsial tarzda hal etishga qaratilgan mexanizmlar majmuasidir. Ushbu usullar yuridik nizolarning, xususan, merosga oid masalalarning murakkabligini hisobga olgan holda, taraflarga o'z manfaatlarini muvofiqlashtirish va umumiy yechim topish imkonini beradi. Muzokara (Negotiation) – nizoni hal qilishning eng oddiy va bevosita shakli bo'lib, unda taraflar mustaqil ravishda, uchinchi shaxslarni jalb qilmasdan, o'zaro muloqot orqali kelishuvga erishadi. Meros shartnomasi kontekstida bu usul mol-mulkni taqsimlash, meros huquqlari yoki boshqa manfaatlar bo'yicha kelishmovchiliklarni muhokama qilish va umumiy qarorga kelishni o'z ichiga oladi. Muzokaraning asosiy afzalligi uning erkinligi, xarajatlarning minimalligi va taraflarning o'z qarorlari ustidan to'liq nazoratga ega bo'lishidir. Keyingi muqobil usullardan biri bu mediatsiya (Mediation)-neytral uchinchi shaxs (mediator) ishtirokidagi nizoni hal qilish usuli bo'lib, mediator taraflarga o'zaro kelishuvga erishishda yordam beradi. Mediator qaror qabul qilmaydi, balki taraflar o'rtasidagi muloqotni yaxshilash, ularning manfaatlarini aniqlash va muvofiqlashtirilgan yechim topishga ko'maklashadi. Meros nizolarida mediatsiya, masalan, mol-mulkni taqsimlash yoki meros huquqlari bo'yicha kelishmovchiliklarni hal qilishda samarali bo'lishi mumkin. Mediatsiyaning asosiy afzalliklari – konfidentsiallik, xarajatlarning nisbatan pastligi va taraflarning o'zaro munosabatlarini saqlab

qolish imkoniyatidir. Mediator odatda maxsus tayyorgarlikdan o'tgan mutaxassis bo'lib, uning vazifasi taraflarning o'z yechimlarini topishiga yordam berishdan iborat.⁵ Keyingi usul – Arbitraj (Arbitration) – nizoni hal qilishning yana bir muqobil shakli bo'lib, unda taraflar o'z ixtiyori bilan mustaqil arbitr yoki arbitraj sudini tanlaydi. Arbitr taraflarning dalil isbotlari va qonun normalarini ko'rib chiqib, qaror qabul qiladi, bu qaror ko'pincha taraflar uchun majburiy hisoblanadi (agar shartnomada boshqacha ko'rsatilmasa). Meros shartnomasida arbitraj mol-mulkni taqsimlash yoki vasiyatnomaning qonuniyligi bo'yicha murakkab nizolarni hal qilishda qo'llanishi mumkin. Arbitraj sud jarayoniga nisbatan tezroq, xususiy va kamroq rasmiy bo'lishi bilan afzaldir. Biroq, arbitraj xarajatlari yuqori bo'lishi va taraflarning qaror ustidan shikoyat qilish imkoniyati cheklanganligi uning kamchiliklaridan hisoblanadi.

Konsiliatsiya mediatsiyaga o'xshash bo'lib, lekin ba'zi hollarda konsiliator taraflarga faolroq yechim taklif qilishi mumkin. Meros nizolarida oilaviy kelishuvlar yoki notarial ravishda rasmiylashtirilgan shartnomalar orqali nizolarning oldini olish mumkin.

Meros shartnomasi tuzilayotganda, nizolarni muqobil hal qilish usullarining aniq tartibi shartnoma matnida ko'rsatilishi tavsiya etiladi. Masalan, shartnomada “Taraflar o'rtasidagi barcha nizolar avval muzokara orqali, agar u muvaffaqiyatsiz bo'lsa, mediatsiya yoki arbitraj yordamida hal qilinadi” kabi bandlar kiritilishi mumkin. Bunday bandlar nizolarning sudgacha hal qilinishini ta'minlaydi va taraflarning vaqt va moliyaviy resurslarini tejashga xizmat qiladi.

Meros shartnomasida ko'zda tutilgan mol-mulkning taqsimoti meros qoldiruvchi vafotidan keyin amalga oshiriladi. Shu bilan birga, shartnoma meros

⁵ O'zbekiston Respublikasining “Mediatsiya to'g'risida”gi Qonuni, № O'RQ-482, 2018y
SJIF: 5.051

qoldiruvchi hayotligida ham muayyan majburiyatlarni yuklashi mumkin, masalan, merosxo‘r tomonidan unga moddiy yordam ko‘rsatish.

Meros shartnomasi instituti ko‘plab xorijiy davlatlarda, xususan, Germaniya, Fransiya va Shveysariyada keng tarqalgan. Masalan, Germaniya Fuqarolik kodeksida meros shartnomasi batafsil tartibga solinadi. Germaniya qonunchiligida meros shartnomasi nafaqat mol-mulkni taqsimlash, balki merosxo‘rlarning muayyan majburiyatlarini, masalan, meros qoldiruvchiga umrboqiy moddiy yordam ko‘rsatishni ham ko‘zda tutishi mumkin.

Fransiyada esa meros shartnomasi (pacte successoral) oilaviy munosabatlarni mustahkamlash va mol-mulkning taqsimotini aniq belgilash uchun qo‘llaniladi.

O‘zbekistan qonunchiligida esa meros shartnomasi ko‘proq vasiyatga yaqin bo‘lib, majburiyatlarning keng doirasini o‘z ichiga olish kamdan-kam uchraydi. Buning sababi – O‘zbekistonda ushbu institutning amaliy qo‘llanishi hali to‘liq shakllanmaganligidir.

Meros shartnomasini muqobil usullarda hal qilishning o‘ziga yarasha afzalliklari va kamchiliklari bor. Muqobil usullarning afzalliklariga sud jarayonlariga nisbatan tezroq, xarajatlarning kamligi, taraflarning o‘zaro munosabatlarini saqlab qolish imkoniyati bilan ajralib turadi. Shuningdek, taraflar ko‘proq nazoratga ega bo‘lib, o‘z manfaatlariga mos yechim topish imkoniyatiga ega. Kamchiliklari esa ko‘p hollarda taraflarning kelishuvga tayyor emasligi, mutaxassislarning malaka darajasi kamligi kabi holatlar bo‘lishi mumkin. Meros shartnomasida nizolarni muqobil hal qilish usullarini qo‘llash yuridik nizolarning samarali va taraflar uchun qulay tarzda hal qilinishiga xizmat qiladi. O‘zbekiston qonunchiligida meros shartnomasini takomillashtirish uchun meros shartnomasini

FKga alohida bo'lim sifatida kiritish, uning huquqiy belgilari va tuzish tartibini aniqlashtirish. **Nizolarni muqobil hal qilish mexanizmlarini rivojlantirish** bilan birga meros shartnomasining afzalliklari va qonuniy talablari haqida targ'ibot ishlarini olib borish samarali bo'ladi deb hisoblaymiz.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, meros shartnomasi fuqarolik huquqining murakkab va istiqbolli instituti bo'lib, u mol-mulkning taqdirini aniq belgilash imkonini beradi. O'zbekistonda ushbu institutning rivojlanishi uchun qonunchilik bazasini mustahkamlash, amaliy tajribani kengaytirish va aholining huquqiy bilimlarini oshirish muhimdir. Xorijiy tajribani o'rganish va uni mahalliy sharoitlarga moslashtirish orqali meros shartnomasining samaradorligini yanada oshirish mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi.
2. O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksi.
3. Пучков О.А. Пучков В.О. Наследственный договор как особый институт гражданского права иностранных государств: общая характеристика и проблемы правового режима // Журнал «Правопорядок: история, теория и практика», №3 (10). – 2016. – с. 35.
4. Graf H.L. Nachlaßrecht. Handbuch der Rechtspraxis. 8 Auflage. München: C.H. Beck'scheVerlagsbuchhandlung, 2010. – p.99.
5. Германское гражданское уложение: Вводный закон к Германскому уложению: перевод с немецкого / Науч. Ред. А.Л.Маяковский и др.